
Raddiya: “Azonni ovoz kuchaytirgichda aytish taqiqlanmadi!”

Joriy yilning 10-dekabr sanasida “Ozodlik radiosi”ning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali “Azonni ovoz kuchaytirgichda aytish yana taqiqlandimi?”, degan sarlavha ostida xabar tarqaldi.

Unda aytilishicha, Farg‘ona viloyati Qo‘sh tepa tumani “Loyson” MFYdagi masjidda bir haftadan buyon azonni ovoz kuchaytirgichsiz aytilayotgani iddao qilingan.

Avvalo shuni eslatish lozimki, Farg‘ona viloyati Qo‘sh tepa tumani Loyson mahalla fuqarolari yig‘ini hududida O‘zbekiston musulmonlari idorasiga qarashli “Sultoni Orifiyn” masjidi faoliyat yuritadi.

Masalaga oydinlik kiritish maqsadida O‘zbekiston musulmonlari idorasi Farg‘ona viloyati vakilligi o‘rganish olib bordi. Hududda istiqomat qiluvchi fuqarolar hamda masjid imom-xatibi vazifasini bajaruvchi Nishonboy Ahmadaliyevning ma‘lum qilishicha, dekabr oyida elektr ta‘minotida uzilishlar bo‘lmagan, hatto masjid faoliyatini boshlagandan buyon ham azon doimo ovoz kuchaytirgich yordamida aytib kelinmoqda. “Azonni ovoz kuchaytirgichda aytish yana taqiqlandimi?” - deya tarqatilgan xabar mutlaqo asossiz hamda yolg‘on ekanini ta‘kidladilar.

Shu o‘rinda o‘zlariga yetib kelgan xabar yoki ma‘lumotini tekshirmay, uni asosli yoki asossiz ekaniga ishonch hosil qilmay turib tarqatayotganlarga hamda shu kabi tekshirilmagan ma‘lumot ortidan ergashayotganlarga Alloh taoloning quyidagi oyatini yana bir bor eslatish lozim.

Alloh taolo mo‘min-musulmonlarni “Hujurot” surasining 6-oyatida quyidagicha ogohlantiradi: “Ey imon keltirganlar! Agar fosiq xabar keltirsa, aniqlab ko‘ringlar, bilmasdan, bir qavmga musibat yetkazib qo‘yib, qilganingizga nadomat chekuvchi bo‘lmanglar”.

O‘zbekiston musulmonlari idorasi Farg‘ona viloyati vakilligi ixlosli xalqimizni asossiz tarqalayotgan ma‘lumotlardan uzoqda bo‘lishga, qolaversa, bu kabi yolg‘on xabarni tarqatib, gunohga sherik bo‘lib qolishdan ehtiyot bo‘lishga chaqiradi.

Farg‘ona viloyati vakilligi matbuot xizmati

2019-12-10 21:24:23